



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRINING B U Y R U G ' I

20 25 - yil " 01 " fevral 108 -son

Toshkent sh.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari lavozimlariga nomzodlarni saralab olish tartibini belgilash haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024- yil 15- noyabrdagi PQ-393-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlarining pedagogik ko'nikmalarini oshirish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari lavozimlariga nomzodlarni saralab olish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mudofaa vazirining va Qurolli Kuchlar Bosh shtabi boshlig'ining o'rinbosarlari, Mudofaa vazirligi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari boshliqlari, harbiy okruglar (birlashmalar) qo'shinlari qo'mondonlariga:

mazkur buyruq ilovasining mazmun-mohiyati o'rganib chiqilsin va ijrosi ta'minlansin;

ta'lim tashkilotlaridagi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (bundan buyon matnda CHQBT deb yuritiladi) fani o'quv-moddiy bazasi holati hamda CHQBT rahbarlarining shaxsiy sifatlarini joylarda o'rganish bo'yicha shakllantirilgan ishchi guruhlarga amaliy yordam ko'rsatilsin.

3. Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti boshlig'iga:

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Vatanparvarlik va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo'limi bilan birgalikda ta'lim tashkilotlaridagi CHQBT fani o'quv-moddiy bazasi holati hamda CHQBT fani o'qituvchilarining shaxsiy sifatlarini joylarda o'rganish rejasi 2025- yil 15- fevralga qadar ishlab chiqilsin va belgilangan tartibda tasdiqlansin. Joylarda ishlash davomida CHQBT fani o'qituvchilariga kelgusida CHQBT rahbari faoliyatini tashkil etish haqida tushuntirish ishlari olib borilsin;

o'rganish natijalari bo'yicha amaldagi tarkibdan kelgusida CHQBT rahbari lavozimida faoliyat yuritmoqchi bo'lganlar haqidagi ma'lumotlarni 2025- yil 1- mayga qadar yig'ilishi va umumlashtirilishi ta'minlansin;

mazkur buyruqning ilovasiga muvofiq nomzodlarni saralab olish tadbirlari bo'yicha yo'l-yo'riq beriladigan uslubiy mashg'ulotlar 2025- yil 1- iyulga qadar har bir harbiy okrug kesimida joylarda o'tkazilishi tashkillashtirilsin;

tanlov komissiyalarining shakllantirilganligi hamda ularni tadbirlarni olib borishga tayyorligi haqidagi ma'lumotnoma 2025- yil 10- iyulga qadar belgilangan tartibda taqdim etilsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu buyruq taalluqliligiga ko'ra tegishli mansabdor shaxslarga yetkazilsin.

VAZIR
general-mayor



SH. XALMUXAMEDOV

**Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari lavozimiga
nomzodlarni saralab olish tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari lavozimlariga ishga qabul qilish uchun tanlovlarni o'tkazish, mehnat shartnomalari tuzish, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, ishdan bo'shatish, faoliyat samaradorligini baholash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, malaka toifasi va navbatdagi harbiy unvon berish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani (bundan buyon matnda – CHQBT deb yuritiladi) – chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hamda o'quv dasturidagi majburiy fan bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining 10 – 11-sinf o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmat asoslari hamda fuqaro muhofazasi bo'yicha bilim va dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish, shuningdek jismonan chiniqtirish orqali harbiy xizmatga tayyorlovchi o'quv fani;

chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari Qurolli Kuchlar xizmatchisi bo'lishi bilan birga, avvalo pedagogik maqomidagi oliy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

ta'lim tashkiloti – umumiy o'rta, prezident, ijod ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi;

nomzod – ta'lim tashkilotlaridagi CHQBT rahbari lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;

malaka talablari – nomzodlarning ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasiga doir ushbu nizom hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar;

ish beruvchi – CHQBT rahbari shtat bo'yicha lavozimda turuvchi tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i;

asosiy ish joyi – CHQBT rahbarining fanni o'quv-yoshlarga o'qitish bo'yicha pedagogik mehnat faoliyatini olib borayotgan ta'lim tashkiloti. Mazkur tashkilot o'quv-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga harbiy xizmatning asoslarini o'rgatish hamda mahalliy yoshlarni harbiy xizmatga qiziqtirish va qamrovini oshirish kabi tadbirlarni joyida olib borilishini ta'minlaydigan maskan;

yordamchi ish joyi – CHQBT rahbari bilan mehnat shartnomasi tuzgan mudofaa ishlari bo'limi bo'lib, mazkur tashkilot CHQBT fanini o'quv-yoshlarga o'qitishda mahalliy hokimiyat va idoralar bilan tashkiliy masalalarni o'zaro muvofiqlikda amalga oshirishda tayanch nuqta.

3. Haqiqiy harbiy xizmatdan rezervga (zaxiraga) bo'shatilayotgan va kelgusida CHQBT rahbari sifatida faoliyat olib borish istagini yozma ravishda bildirgan ofitserlar, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchilarga mansub oliy ma'lumotli oddiy askar

va serjantlar haqiqiy harbiy xizmatining yakuniy davrida – Toshkent davlat pedagogika universiteti, Farg‘ona davlat universiteti va Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy tayyorgarlik fakultetlaridan birida qayta tayyorlash kursida tahsil oladilar.

2-bob. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani nufuzini oshirish tamoyillari

4. CHQBT fani – umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarining 10-11- sinf o‘quvchilarini harbiy-vatanparvarlik, sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalash hamda psixologik va jismonan chiniqtirish orqali harbiy xizmatning dastlabki xususiyatlarini o‘rgatuvchi fan bo‘lib, o‘quvchi-yoshlarga boshqa fanlarni o‘qitishning vatanparvarlik maqsadlarini muvofiqlashtiruvchi fan hisoblanadi.

5. CHQBT fanini sifatli o‘qitilishi uchun umumiy o‘rta ta‘lim tashkiloti, joylardagi mahalliy hokimiyat, mudofaa ishlar bo‘limi va ta‘lim tashkilotiga biriktirilgan harbiy qism (muassasa) rahbariyati shaxsan mas‘uldir.

CHQBT rahbari lavozimi vakant bo‘lgan taqdirda lavozim butlanguniga qadar, istisno tariqasida, harbiy xizmatni o‘tagan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga CHQBT fanidan dars o‘tishga ruxsat beriladi.

Mazkur holat yuzaga kelganda, umumiy o‘rta ta‘lim tashkiloti rahbari mudofaa ishlar bo‘limi xabarnomasiga muvofiq darelar jadvaliga o‘zgartirishlari kiritadi. O‘z navbatida, vakant lavozimni butlash maqsadida amaldagi nizom talablariga muvofiq tanlov o‘tkaziladi.

Agarda, vakant lavozimni butlash davomida dars jadvalini o‘zgartirish evaziga CHQBT fani mashg‘ulotlarini keyinroq o‘tkazishning imkoniyati bo‘lmasa, mudofaa ishlar bo‘limi boshlig‘i boshqa ta‘lim tashkilotining CHQBT rahbari bilan qonunchilikda belgilangan tartibda qo‘shimcha shartnoma tuzadi va ushbu lavozim vakant bo‘lgan ta‘lim tashkilotida mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida va sifatli o‘tilishini ta‘minlaydi.

6. CHQBT fanining o‘quv-moddiy bazasi Umumta‘lim tashkilotlarining Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘quv-moddiy bazasini rivojlantirish alohida talablarga muvofiq barpo etiladi. Uni shakllantirish va rivojlantirish Mudofaa vazirligi tomonidan taqdim etilgan texnik-topshiriqlar asosida, mahalliy hokimiyat (harbiy-ma‘muriy sektor rahbarlari) hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi mablag‘lari va moddiy vositalari hisobidan amalga oshiriladi. Bunda, ta‘lim tashkilotiga biriktirilgan harbiy qism (muassasa)lar tomonidan tuzilgan ta‘mirlash-qurish guruhlarini jarayonga amaliy yordam ko‘rsatish uchun jalb qilinishi mumkin.

7. Harbiy okrug poligonlari va harbiy qism (muassasa) o‘quv-moddiy bazasida amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish uchun chiqarilayotgan o‘quvchi-yoshlarni manzilga olib borish va qaytarishdagi transport hamda ularni joylarda bo‘lishlari davomida ovqatlantirish xarajatlari mahalliy hokimiyatlar hisobidan amalga oshiriladi.

3-bob. CHQBT rahbari lavozimiga ishga qabul qilish

8. Fuqarolar CHQBT rahbari lavozimiga tanlov asosida ishga qabul qilinadi.

Bo‘sh lavozimlarga tanlovni sifatli, shaffof va qonuniy tashkil etilishi va o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida tuman (shahar) mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘ining buyrug‘i bilan doimiy faoliyat yurituvchi tanlov komissiyasi (bundan buyon matnda – Tanlov komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

Tanlov komissiyasining tarkibi har o'quv yili yakunida aniqlashtirilib, yangilab boriladi.

9. Tanlov komissiyasining tarkibiga, lavozimi bo'yicha quyidagilar tayinlanadi:

komissiyasi raisi – tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i;

komissiya a'zolari — O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi, Yoshlar ittifoqining tuman (shahar) bo'limlarining malakali mutaxassislari, CHQBT rahbari lavozimi vakant (bo'sh) bo'lgan ta'lim tashkiloti rahbari yoki uning o'rinbosari;

komissiyasi kotibi – tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi boshlig'ining taalluqli o'rinbosari.

Tanlov komissiyasi tarkibiga kelishuv asosida harbiy okrug huzuridagi Jamoatchilik va Faxriylar kengashlari, ta'lim tashkilotiga biriktirilgan harbiy qism (muassasa) vakillari, hududda joylashgan harbiy qismlarning sinovlar qabul qilishga mas'ul mutaxassislari ekspert sifatida jalb etilishi mumkin.

10. Tanlov komissiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish va ro'yxatga olish;

taqdim etilgan hujjatlarning mazmuni va shaklini belgilangan talablarga mos ekanligi va haqqoniyligini o'rganish;

nomzodlarga tanlovni o'tkazish va baholash tartibi bo'yicha maslahat hamda tushuntirishlar berish;

tanlov o'tkaziladigan vaqt va joy haqida nomzodlarni o'z vaqtida xabardor qilish;

sinovlarni o'tkazish uchun zaruriy materiallar (savollar, mavzular, adabiyotlar, ko'rgazmali materiallar) va moddiy-texnik bazani (orgtexnika, o'quv-moddiy baza va boshqalar) tayyorlash ishlarini tashkillashtirish;

o'tkazilayotgan sinovlarning odilligi va shaffofligini ta'minlash, nomzodlarni baholash jarayonida adolat va sifat tamoyillariga qat'iy rioya etish;

natijalarni sifatli rasmiylashtirilishini (vedomostlar, dalolatnoma, bayonlar va boshqalar) ta'minlash;

tanlov davomida yuzaga kelgan muammoli va boshqa savollar bo'yicha o'z mutaxassisligi va sohasidan kelib chiqqan holda ekspertlik baholash va zarur sharoitlarni berish;

nomzodning shaxsga doir ma'lumotlarini uning rozilgisiz oshkor qilinmasligini ta'minlash.

11. Ta'lim tashkilotlarida o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlash, mashg'ulotlarni sifatli va darslar jadvaliga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash maqsadida, mavjud vakant CHQBT rahbari lavozimlarini butlash uchun tanlov o'tkaziladi.

Tanlov o'quv yili davomida mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib tegishli mudofaa ishlari bo'limi boshlig'ining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

12. Respublikada mavjud bo'lgan vakant CHQBT rahbari lavozimlari (ta'lim tashkiloti, hududi), malaka talablari, lavozim majburiyatlari, ish haqi hamda tanlov o'tkazish joyi va kunlari to'g'risidagi ma'lumotlar Mudofaa vazirligining Mudofaa.uz rasmiy veb-saytida muntazam ravishda e'lon qilib boriladi.

Ma'lumotlar tegishli mudofaa ishlari boshqarmalari rahbarlari tomonidan taqdim etilgan axborotlarga asosan Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti tomonidan har hafta yangilab boriladi.

13. Nomzodlarga qulaylik yaratish maqsadida, CHQBT rahbari lavozimiga nomzodlarni saralash tartibi, ularga qo'yiladigan talablar haqidagi ma'lumotlar qayd

etilgan axborot stendlari Mudofaa ishlari bo'limlarining hamda tanlovlar o'tkaziladigan bino va inshootlardagi fuqarolarga ko'rinarli joylarda joylashtiriladi.

14. Nomzodlar Tanlov komissiyasiga belgilangan shakldagi ariza (1-ilova) bilan yozma (keyinchalik elektron platforma orqali elektron shaklda) murojaat qilishlari mumkin.

15. Nomzodning yozma (elektron) arizasi kelib tushgan kundan e'tiboran besh ish kuni davomida mazkur Nizomning 2-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar mudofaa ishlari bo'limi tomonidan (elektron tizim orqali yuklab olinib) o'rganib chiqiladi.

O'rganish natijalari ijobiy bo'lsa, fuqaro nomzodlar ro'yxatiga kiritiladi va bu to'g'risida xabardor qilinadi, aksincha bo'lgan taqdirda esa, tanlov komissiyasi raisining imzosi bilan nomzodga aniqlangan kamchiliklar ko'rsatilgan holda, ularni bartaraf etish va qayta murojaat qilish mumkinligi to'g'risida yozma yoki elektron shaklda ma'lum qilinadi.

Tanlov tadbirlari boshlanishiga bir haftadan kam muddat qolganda murojaat qilgan nomzodlar ushbu tanlovda emas, balki keyingi tanlovda ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

16. CHQBT rahbari lavozimiga tayinlanish uchun tanlovda qatnashuvchi nomzodlar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar tanlov tadbirlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin uni o'tkazish vaqti va joyi haqida xabardor qilinadilar.

17. CHQBT rahbari lavozimiga tayinlash uchun tanlov quyidagi to'rt bosqichda mazkur Nizomning 3-ilovasida keltirilgan jadvalga muvofiq amalga oshiriladi:

a) 1-bosqich: nomzodning amaliy bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazish (amaliy sinovlar):

nomzodning pedagogik qobiliyati va mahoratini sinovdan o'tkazish maqsadida CHQBT fani dasturi doirasida taklif etilgan mavzuda sinov mashg'uloti o'tkazish (30 balli baholash tizimida baholanadi);

nomzodlarning harbiy tayyorgarligi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash (*saf amallari, jismoniy tayyorgarlik, o'q otish tayyorgarligi va fuqaro muhofazasi bo'yicha meyorlarni bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi*). Maksimal 15 ballgacha baholanadi.

nomzodlarning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash (Microsoft office dasturiy ta'minoti doirasida): Microsoft Word – 3 ta, Microsoft Power Point – 3 ta, Microsoft Excel – 3 ta topshiriqlarni amaliy bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Maksimal 15 ballgacha baholanadi.

b) 2-bosqich: nomzodning nazariy bilimlarini sinovdan o'tkazish (nazariy sinovlar):

nomzodlarni o'z fikrini bayon eta olish qobiliyatlarini tekshirish maqsadida Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti tomonidan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq, taklif etilgan vatanparvarlik mavzuda bayon (insho) yozish 20 balli baholash tizimida baholanadi;

yoshlar va yoshlarga oid siyosat, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiya masalalariga oid rahbariy hujjatlar talablariga oid bilimlarini hamda umumiy harbiy tayyorgarlik bo'yicha bilim darajasini tekshirish bo'yicha test sinovlari Mudofaa vazirligi Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik va yoshlar bilan ishlash departamenti tomonidan tayyorlangan test savollari bo'yicha kompyuterda (avtomatik baholash funksiyasi bilan) amalga oshiriladi hamda 30 ta savol bo'yicha 30 ballik tizimda baholanadi.

d) 3-bosqich: Nomzodning tanlovga taqdim etilgan hujjatlari asosida qo'shimcha baholash:

qo'shimcha baholash jarayonida belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar (ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, rasman chop etishga ruxsat etilgan darslikva qo'llanmalari, pedagogik staji, davlat mukofotlari, pedagogika yo'nalishida malaka oshirganligi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi xizmat yillari) uchun taqdim etilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda, tegishli miqdorda ballar beriladi. Maksimal 90 ballgacha berilishi mumkin.

e) 4-bosqich: Nomzod bilan yakka tartibda suhbat:

nomzod bilan mintaqada va dunyoda sodir bo'layotgan harbiy-siyosiy vaziyat, respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ta'lim sohalaridagi islohotlar, o'qituvchilik kasbini tanlashi uchun sabab va motivatsiyalar, kelajakdagi rejalari va h.k. mavzusida suhbat. Maksimal 15 ballgacha berilishi mumkin.

18. Amaliy va nazariy sinovlar yakunlari bo'yicha jami 50 ball va undan yuqori ball to'plagan nomzodlarga yakka tartibdagi suhbatda qatnashishga ruxsat etiladi.

Yakka tartibdagi suhbatdan muvoffaqiyatli o'tgan nomzodlar suhbat va qo'shimcha baholash ballarini inobatga olgan holda, to'plagan ballari bo'yicha ketma-ketlikda "Reyting" bo'yicha ro'yxatga kiritiladilar va eng yuqori o'rinni egallagan nomzodlar o'zlari istak bildirishgan ta'lim tashkilotiga CHQBT rahbari lavozimiga tayinlash uchun tavsiya etiladi.

19. Tanlov natijalari bo'yicha lavozimga tayinlangan CHQBT rahbarlari har uch yilda qayta tanlovdan o'tishlari shart.

20. Tanlov tadbirlari o'tkazilayotgan xonaga nomzodlar tomonidan mobil aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lug'at, shpargalka va boshqa materiallar olib kirish hamda foydalanish, shuningdek boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek tanlov o'tkazish jarayonida belgilangan (komissiya a'zolari tomonidan e'lon qilingan) tartibini buzgan nomzodlar komissiya a'zolari va guvohlar ishtirokida tuzilgan dalolatnoma asosida tanlov tadbirlaridan chetlashtiriladi.

Tanlovning oshkora va xolis o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Tanlov komissiyasi tanlov tadbirlarini videotasvirga olinishini ta'minlaydi.

21. Tanlov davomida o'tkazilgan sinovlar natijalari o'rnatilgan shakldagi vedomostlarda qayd etib boriladi va komissiya a'zolari tomonidan imzolanib, komissiya raisi tomonidan tasdiqlangach nomzodlarga har bir sinovdan keyin e'lon qilinadi.

Barcha sinovlar natijalari va nomzodlar tomonidan yig'ilgan ballar "reyting" ro'yxatiga kiritib boriladi va tanlov yakunida komissiya a'zolari tomonidan imzolanib, komissiya raisi tasdiqlagach tanlov ishtirokchilariga shu kunning o'zida yoki keyingi ish kuni davomida e'lon qilinadi va komissiya qarori ustidan shikoyat qilish tartibi yetkaziladi.

22. Tanlov natijalari bo'yicha komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan va komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma tuziladi.

23. Bayonnomada quyidagilar ko'rsatiladi:

bayonnoma raqami va qabul qilingan sanasi;

tanlovda ishtirok etgan komissiya a'zolari ro'yxati;

tanlov natijalari (*bo'lib o'tgan tanlov yuzasidan qisqacha ma'lumotlar kiritiladi*);

tanlov natijalariga ko'ra lavozimga tayinlashga tavsiya etilganlar va o'ta olmagan ro'yxati.

24. Bayonnomalar hisobi kirish raqami, inventar hisobga olinmagan holda "Bayonnomalarni hisobini yuritish kitobi" bo'yicha bayonnoma va ishchi materiallari alohida ish jildiga tikilgan holda mudofaa ishlar bo'limi tomonidan yuritiladi.

Tanlov tadbirlarini o'tkazish bilan bog'liq barcha hujjatlar mudofaa ishlar bo'limida besh yil saqlanadi, keyinchalik esa Mudofaa vazirligi Markaziy arxivga yuboriladi, ushbu hujjatlar markaziy arxivda besh yil muddatdan so'ng belgilangan tartibda yo'q qilinadi.

25. Tanlovda yuqori o'rinlarni egallay olmagan (o'ta olmagan) nomzodlar keyingi tanlovlarda nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin.

26. CHQBT rahbari lavozimiga tanlovdan muvafaqqiyatli o'tgan bakalavr, magistr va undan yuqori, diplomli mutaxassis (erkak jinsiga mansub harbiy xizmatchi oddiy askar va serjantlar, ayol va erkak jinsiga mansub bo'lgan ofitserlar) ishga olinadi. Agarda ta'lim tashkiloti joylashgan hudud yoki boshqa hududlardan CHQBT rahbari lavozimiga ishga kirish bo'yicha nomzodlar mavjud bo'lmasa, istisno tarzda, tegishli ta'lim tashkiloti rahbarining tavsiyasiga ko'ra, vakolatli mudofaa ishlari bo'limi bilan kelishilgan holda muddatli harbiy xizmatni o'tagan oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya o'qituvchisi muddatli mehnat shartnoma asosida (malaka talablariga javob beruvchi xodim ishga olingunga qadar) ishga olinishi mumkin.

27. Pedagogning maqomi to'g'risidagi Qonun bilan belgilangan cheklovlarga qo'shimcha ravishda, quyidagi shaxslar CHQBT rahbari lavozimiga ishga qabul qilinmaydi:

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotgan yoxud boshqa davlatning fuqaroligi mavjud bo'lgan;

Qurolli Kuchlar tarkibidagi vazirlik (idora) tashabbusi bilan kontrakt muddatidan oldin bekor qilinib, rezervga (iste'foga) bo'shatilgan;

harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlarni sodir qilganligi uchun sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar (o'tgan davri yoki sudlanganlik yechilganidan qat'iy nazar). Bunda, to'liq rehabilitatsiya qilinganlar mustasno;

davlat sirlari bilan ishlash ruxsatnomasidan mahrum qilingan;

harbiy xizmatchi nomiga dog' tushuruvchi hatti-harakatlarni sodir etganligi uchun harbiy xizmatdan (xizmatdan) bo'shatilgan.

4-bob. Nomzodlarning apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish

28. Nomzodlarning tuman (shahar) tanlov komissiyalari faoliyati ustidan apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Mudofaa ishlari boshqarmalari boshliqlarining buyrug'i bilan, toq raqamda yetti kishidan kam bo'lmagan doimiy faoliyat yurituvchi Apellyatsiya komissiyasi (bundan buyon matnda – Apellyatsiya komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

29. Apellyatsiya komissiyasining tarkibiga, lavozimi bo'yicha quyidagilar tayinlanadi:

komissiyasi raisi – Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Mudofaa ishlari boshqarmalari boshliqlarining tegishli o'rinbosarlari;

komissiya a'zolari – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Yoshlar ittifoqining hududiy boshqarmalarining tegishli malakali mutaxassislari;

komissiyasi kotibi – hududiy mudofaa ishlari boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

30. Tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan nomzodlar tanlov natijalari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida yozma yoki elektron shaklda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Mudofaa ishlari boshqarmalari qoshida tuzilgan Apellyatsiya komissiyasi raisi nomiga shikoyat ariza berishlari mumkin.

31. Apellyatsiya komissiyasi shikoyatlar kelib tushgan kundan boshlab besh ish kuni ichida murojaat qilgan nomzod ishtirokida, yoki uning yozma roziligi asosida uning ishtirokisiz ko'rib chiqadi.

Apellyatsiya komissiyasi kotibi nomzodlarni shikoyatini ko'rib chiqish vaqti va joyi haqida ikki kun oldin xabardor qiladi.

32. Apellyatsiya komissiyasi tanlov jarayonida nomzodning bergan javoblari, bajargan amaliy mashqlari aks etgan videotasvirlarni ko'rish hamda to'ldirilgan vedomostlar asosida masalani atroflicha o'rganadiva tegishli xulosalar chiqaradi.

Apellyatsiya komissiyasi tomonidan shikoyatni ko'rib chiqish davomida nomzodga uni qayta baholashga qaratilgan savollar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

33. Shikoyatni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Apellyatsiya komissiyasi tomonidan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

tanlov natijalarini o'zgarishsiz qoldirish;

shikoyat qilingan sinov natijalarini o'zgartirish va shu munosabat bilan umumiy tanlov natijalariga "Reyting"ga o'zgartirish kiritish (amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasiga ko'ra, nomzodni ishga qabul qilish yoki rad etish to'g'risida qaror chiqariladi).

Apellyatsiya shikoyatini ko'rishda nomzodning tanlovda olgan natijasini pasaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

34. Apellyatsiya komissiyasining qarori shikoyat bilan murojaat qilgan nomzodga shu kunning o'zida ma'lum qilinadi.

5-bob. Mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish

35. CHQBT rahbari lavozimiga tayinlash tegishli tuman (shahar) Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'ining buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Mazkur buyruqni imzolash uchun xodim hamda tuman (shahar) Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i tomonidan imzolangan mehnat shartnomasi asos bo'ladi. Bunda xodimning mehnat shartlari hamda uning mehnat munosabatlari oid masalalar tegishli ta'lim tashkiloti rahbari bilan kelishilgan holda shartnomada qayd etib o'tiladi.

Xodim mehnat shartnomasi tuzilgandan keyin ishga kirishishi shart bo'lgan muddat tomonlarning kelishuvi bo'yicha belgilanadi, biroq ushbu muddat bir oydan ortiq bo'lishi mumkin emas.

36. Davlat boshqaruvi organi qaroriga muvofiq pedagog xodimlar attestatsiyadan o'tkazilgan taqdirda attestatsiya yakunlariga ko'ra ish beruvchi va xodimlar o'rtasidagi mehnat munosabatlari, shaxsning tanlov bo'yicha egallanadigan lavozimda bo'lish muddatidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

37. Egallab turgan lavozimi uchun tanlovdan o'tmagan, shuningdek navbatdagi tanlovda qatnashish uchun ariza bermagan shaxslar bilan mehnat shartnomasi tanlovdan o'tmaganligi yoxud tanlovda qatnashishni rad etganligi sababli mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i tomonidan belgilangan muddatlarda (qoidaga ko'ra, o'quv yili tamom bo'lgandan keyin) mehnat qonunchiligiga muvofiq tugatiladi.

38. Pedagogik faoliyatida yo'l qo'ygan kamchiliklari, ta'lim tashkiloti pedagog kadrlari uchun belgilangan talablar va tartib qoidalarga rioya etmasligi, past uslubiy

va professional tayyorgarligi va boshqa obyektiv sabablar, shuningdek, CHQBT rahbarining o'quv yili davomidagi faoliyati samaradorligining ko'rsatkichlari (KPI) o'rtacha miqdori 50 balldan past bo'lgan hollarda uni egallab turgan lavozimiga loyiqligi masalasi belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

Ushbu masala mudofaa ishlari bo'limi xodimlari faoliyatini baholash vakolati berilgan attestatsiya komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

CHQBT rahbarini egallab turgan lavozimiga loyiqligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishdan oldin, uning faoliyati har tomonlama o'rganib chiqilishi lozim.

Attestatsiya komissiyasi CHQBT rahbarini egallab turgan lavozimiga noloyiq deb e'tirof etgan taqdirda, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi mehnat qonunchiligi talablari bilan belgilangan tartibda bekor qilinadi.

39. CHQBT rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish masalalariga doir mehnat nizolari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

40. Ta'lim tashkilotida CHQBT rahbari lavozimi bo'sh (vakant) bo'lgan hollarda, boshqa ta'lim tashkiloti CHQBT rahbari, agar bunday imkoniyat bo'lmasa ta'lim tashkilotining harbiy xizmatni o'tagan jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan qonunchilikda belgilangan tartibda qo'shimcha shartnoma tuzish orqali mazkur xodimga vakant lavozim majburiyatlarini bajarish vaqtincha yuklatiladi. Bundan tashqari, mudofaa ishlari boshqarmasi (bo'limi) va hududiy safarbarlik chaqiruv rezervi batalyoni ofitserlarini mashg'ulotlarni o'tishga jalb qilish orqali – fanni o'z vaqtida va sifatli o'rganilishi ta'minlanadi.

MUDOFAA VAZIRLIGI CHAQIRUVGA QADAR
BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK VA YOSHLAR BILAN
ISHLASH DEPARTAMENTI BOSHLIG'I

polkovnik



B.Zulfiqorov

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari
lavozimiga nozodlarni saralab olish tartibi to'g'risidagi nizomga
1- ilova

**Ishga qabul qilish bo'yicha tanlovni o'tkazishda
nomzod tomonidan taqdim etiladigan
ARIZA**

_____ Respublikasi (viloyati)
_____ tuman (shahar) mudofaa ishlari
bo'yicha bo'lim tanlov komissiyasiga

Ushbu orqali Sizdan umumumiy o'rta ta'lim tashkiloti chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbari lavozimiga ishga qabul qilish uchun o'tkaziladigan tanlovda qatnashish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishingizni so'rayman.

O'zim haqimda quyidagi ma'lumotlarni taqdim qilaman.

1.	Ariza beruvchi nomzodning F.I.O:	
2.	Yashash manzili (respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloq, ovul, ko'cha xonadon raqami) to'liq ko'rsatiladi:	
3.	JSHIR raqami:	
4.	Pasport yoki ID-karta ma'lumotlari: (seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)	
5.	Xorijga chiqish biometrik pasporti (seriyasi, raqami, kim tomonidan va qachon berilgan)	
6.	Bog'lanish uchun telefon (telegramm):	
7.	Ma'lumoti: (Qachon, qaysi OHTM (OTM)ni tamomlagan:	
8.	Diplom (shahodatnoma) bo'yicha mutaxassisligi, uning seriyasi, raqami, berilgan sanasi va bergan ta'lim muassasasining nomi:	
9.	Malaka oshirganlik to'g'risidagi ma'lumotlar (qachon va qaysi tashkilot tomonidan berilgani, seriyasi va raqami, qaysi mavzu bo'yicha malaka oshirganligi) (agar mavjud bo'lsa):	
10.	Malaka toifasiga ega ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar (qachon va qaysi tashkilot tomonidan berilgani, seriyasi va raqami, qaysi ixtisoslik bo'yicha toifa berilgani) (agar mavjud bo'lsa):	
11.	Umumiy ish staji (agar mavjud bo'lsa), shundan bo'sh (vakant) ish o'rni uchun talab etiladigan mutaxassislik bo'yicha:	
13.	Harbiy xizmatdan (xizmatdan) rezervga (iste'foga) bo'shatish to'g'risidagi buyruq raqami hamda sanasi.	
14.	Oxirgi ish joyi bo'yicha tasdiqlangan qog'oz shaklidagi mehnat daftarchasini yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirmani.	
15.	Harbiy xizmatga majburlar yoki chaqiriluvchilar uchun tegishincha harbiy guvohnomani yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnomani.	
16.	Oliy ta'lim tashkilotini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomni, qaysi ishni bajarish uchun faqat maxsus ma'lumotga yoki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar qo'yilishi mumkin bo'lsa, o'sha ishga kirish chog'ida ushbu ishni bajarish huquqiga doir guvohnomani (sertifikatni) yoxud boshqa tegishli hujjatni.	
17.	Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasini, bundan birinchi marta ishga kirayotgan shaxslar mustasno.	
18.	Shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanishga roziligi:	

Izox: jadvalda ko'rsatib o'tilgan hujjatlar nusxalari ilova qilinadi.

Ariza beruvchi shaxsning F.I.O. va imzosi: _____

Ariza to'ldirilgan sana: 20__ yil "___" _____

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik rahbarlari
lavozimiga nozodlarni saralab olish tartibi to'g'risidagi nizomga
3- ilova

**CHQBT rahbari lavozimiga tayinlash uchun tanlov o'tkazish jarayonida
nomzodlarni baholash ko'rsatkichlari
JADVALI**

t/r	Sinov turi	Baholash mezonlari (ball)				
		5 baho	4 baho	3 baho	2 baho	Alohida ko'rsatkich
Amaliy sinovlar						
1	Taklif etilgan mavzuda "Sinov mashg'uloti" o'tkazish	30	20	10	0	
3	Saf amallari, jismoniy tayyorgarlik, o'q otish tayyorgarligi va fuqaro muhofazasi bo'yicha me'yorlarni bajarish	20	15	10	0	
4	AKT bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash	15	10	5	0	
Nazariy sinovlar						
1	Taklif etilgan vatanparvarlik mavzuda bayon (insho) yozish	15	10	5	0	
2	Rahbariy hujjatlar talablari va umumiy harbiy tayyorgarlik bo'yicha bo'yicha test sinovlari	30	20	10	0	
Jami sinovlar bo'yicha ballar:		110	75	40	0	
Yakka tartibda suhbat						
1	Belgilab berilgan mavzularda yakka tartibda suhbat	15	10	5	0	
Qo'shimcha ballar						
1	Ilmiy darajasi uchun: Fan doktori (DSc) Falsafa doktori (PhD)					25 15
2	Ilmiy unvoni uchun: Professor Dotsent (KIX)					15 10
3	Rasman chop etishga ruxsat etilgan darslik va qo'llanmalari uchun (oxirgi 10 yil ichida): Yakka mualliflikda hammualliflikda					10 5
4	Pedagogik staji uchun: 2 yil 4 yil 5 yil va undan ko'p					2 8 10
5	Davlat mukofotlari uchun (har biriga)					10
6	Oxirgi uch yil ichida malaka oshirganligi uchun					10
7	O'R QK safidagi xizmati uchun: 5-10 yil 10 yildan ko'p					5 10

“TASDIQLAYMAN”
O‘R MV CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH
TAYYORGARLIK VA YOSHLAR BILAN ISHLASH
DEPARTAMENTI BOSHIG‘I

polkovnik

2025- yil “ 1 ”

B. Zulfiqorov

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2025- yil 1- fevraldagi
108- son buyruq loyihasi
TARQATUV VARAG‘I

№t/r	Qayerga yuborildi	Izoh
1	MV MA devonxonasi	1
2	MV chaqiruvga qadar boshlangich tayorgarlik va YOBID	1
3	MV Kadrlar bosh boshqarmasi	1
4	MV Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasi	1
5	Toshkent harbiy okrugi	1
6	Toshkent shahar mudofaa ishlari boshqarmasi	1
7	Toshkent viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
8	Sirdaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
9	Sharqiy harbiy okrugi	1
10	Farg‘ona viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
11	Namangan viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
12	Andijon viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
13	Markaziy harbiy okrugi	1
14	Jizzax viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi	1
15	Samarqand viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
16	Navoyi viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
17	Janubi-g‘arbiy maxsus harbiy okrugi	1
18	Buxoro viloyati mudofaa ishlari boshqarmalari	1
19	Qashqadaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
20	Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	1
21	Shimoli-g‘arbiy harbiy okrugi	1
22	Qaraqalpog‘iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasi	1
23	Xorazm viloyati mudofaa ishlari boshqarmalari	1

MV CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK
VA YOSHLAR BILAN ISHLASH DEPARTAMENTI USLUBIY
TA‘MINOT BO‘LIMI BOSHIG‘I

podpolkovnik

A.Turdiyev